

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI TURIZM IBORALARINING MADANIY AHAMIYATI

Maxmudova Nozimaxon Zoxidjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi, o‘qitish meto‘dikasi va tarjimashunoslik fakulteti 202-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi turizm iborolari tahlil qilinib, ularning madaniy ahamiyati va lingvistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Til va madaniyatning uyg‘unligi turizm iboralarida aks etishi, tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi. Maqola doirasida yangi ilmiy yondashuvlar taklif qilinib, o‘zbek tilida turizm terminologiyasini boyitish bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: turizm iborolari, madaniy ahamiyat, o‘zbek tili, ingliz tili, tarjima muammolari, lingvomadaniy uyg‘unlik, standartlashtirish.

Annotation

This article analyzes tourism phrases in Uzbek and English, focusing on their cultural significance and linguistic characteristics. It explores how the harmony of language and culture is reflected in tourism terminology, discusses the challenges faced during the translation process, and suggests solutions to address these issues. The article proposes new scientific approaches and offers recommendations for enriching Uzbek tourism terminology.

Keywords: tourism phrases, cultural significance, Uzbek language, English language, translation challenges, linguistic-cultural harmony, standardization.

Turizm (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda 24 soatdan kam bo‘lmagan va 365 kundan oshmagan holda sayohat qilishi tushuniladi. Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo‘l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlarini AQShga jo‘natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. [9]. O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O‘zbekturizm"

milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat [10].

Turizm global miqyosda nafaqat iqtisodiy, balki madaniy o'zaro ta'sirning ham muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi xalqaro muloqotning sifatiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda til asosiy o'rinni egallaydi [1]. Ingliz tili xalqaro turizmning yetakchi tili bo'lib, uning iborolari dunyo bo'ylab muloqot vositasi sifatida qabul qilingan [2]. Shu bilan birga, mahalliy tillar, xususan, o'zbek tili ham o'ziga xos madaniy xabarlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqotda turizm iborolari tilning lingvistik xususiyatlarini, madaniyatga xos elementlarni aks ettiradi. O'zbek va ingliz tillaridagi turizm iborolari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni o'rganish ushbu sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini taklif etishga imkon beradi [3].

Turizm iboralarining madaniy ahamiyati

1. Til va madaniyat uyg'unligi:

Har bir til madaniyatning aksidir [4]. Ingliz tilidagi turizm iborolari, masalan, "hospitality industry" (mehmondo'stlik sohasi) yoki "all-inclusive" (hammasi ichiga kirgan xizmatlar), zamonaviy global turizmning tijoriy jihatlarini aks ettiradi. O'zbek tilida esa "mehmondo'stlik", "sayohat xizmatlari" kabi iboralar milliy madaniyatning o'ziga xosligi va qadriyatlarini ifodalaydi [5]. O'zbek tilida "mehmon" tushunchasi faqatgina xizmat ko'rsatiladigan shaxsni emas, balki unga nisbatan ko'rsatiladigan hurmat va g'amxo'rlikni ham o'z ichiga oladi [6]. Ingliz tilida esa "guest" tushunchasi ko'proq biznes yo'nalishidagi ma'noga ega [7].

2. Lingvistik farqlar:

Ingliz tilidagi iboralar ko'pincha qisqa va funksional bo'lib, aniq maqsadga qaratilgan. Masalan, "travel insurance" (sayohat sug'urtasi), "tour package" (sayohat paketi) kabi iboralar mavjud [2]. O'zbek tilida esa iboralar ko'proq batafsil va tasviriydir: "sayohatni sug'urtalash", "sayohatga oid xizmatlar to'plami". Bu o'zbek tilining lingvistik xususiyatlari va madaniy an'analari bilan bog'liq [4].

3. Madaniy ahamiyat:

Turizm iborolari madaniyatni ifodalash vositasi sifatida xalqaro muloqotda muhim o'rin tutadi. O'zbek madaniyatida turizm iborolari mehmondo'stlik, urf-odatlar va an'analarga asoslangan [5]. Ingliz tilida esa iboralar ko'proq xizmat sifatiga, tijorat va innovatsiyaga yo'naltirilgan [3]. Ingliz tilida "adventure tourism" (sarguzasht turizmi) iborasi ekstremal va faol turizmga ishora qiladi. O'zbek tilida esa "ziyosat turizmi" iborasi madaniy va diniy sayohatlarni ifodalaydi [6].

Muammolar va ularning yechimlari

Turizm iboralarini tarjima qilishda kontekst yo'qolishi, madaniy farqlar jihatidan muammolar duch kelishimiz mumkin. Yani, "bed and breakfast" iborasini "yotoq va nonushta" deb tarjima qilish to'liq ma'noni aks ettirmaydi [7]. Ingliz tilidagi ba'zi iboralar o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emas [1].

Yuqorida ko'rasatilgan muammolarga duch kelsakda iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qancha samarali usullar mavjud.

Kontekstual tarjima: Atamalarni tarjima qilishda madaniy kontekstni hisobga olish zarur [8]

Standartlashtirish: O'zbek tilida turizm iboralari uchun standart lug'atlar yaratish lozim [4].

Lingvomadaniy tadqiqotlar: O'zbek va ingliz tillaridagi turizm iboralari o'rtasidagi madaniy farqlarni o'rganish orqali yangi yondashuvlar taklif etish [3]. Korpus lingvistikasi: O'zbek tilidagi turizm matnlarini o'rganish uchun maxsus korpus yaratish [5].

Yangi iboralar yaratish: Ingliz tilidan olingan iboralarga mos ravishda yangi o'zbekcha atamalarni ishlab chiqish [6].

Xulosa qilib aytganda, O'zbek va ingliz tillaridagi turizm iboralari til va madaniyatning uyg'unligini o'zida mujassam ettiradi. Ularning o'ziga xosliklarini saqlab qolish va xalqaro muloqot doirasida keng qamrovida, samarali qo'llash maqsadida lingvistik va madaniy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, yangi tajriba va usullarni qo'llab ko'rish zarurdir. Bundan tashqari, O'zbek tilida turizm iboralarini boyitish va standartlashtirish. Turizm sohasi uchun maxsus o'zbekcha terminologik qo'llanmalar yaratish. Tarjima jarayonida madaniy uyg'unlikni ta'minlash uchun malakali mutaxassislarni jalb etish va ularni salohiyatini oshirib borish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Urinova S. B. "Xalqaro turizm atamalarining ingliz va o'zbek tillarida shakllanishi va rivojlanishi". CyberLeninka ilmiy maqolalar bazasi, 2022.
2. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat turizm qo'mitasi. "Turizm sohasidagi terminologiyaning rivojlanishi bo'yicha hisobot". Toshkent, 2023.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2020.
5. Muminov A. "Lingvistik va madaniy tarjima muammolari". O'zbekiston Filologiya ilmiy jurnali, 2021.
6. Kachru, B. B. "The Alchemy of English: The Spread, Functions, and Models of Non-Native Englishes". University of Illinois Press, 1990.
7. Alimov S. "Madaniyat va til: xalqaro muloqotning o'ziga xos xususiyatlari". Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti nashrlari, 2022.

8. Halliday, M. A. K. "Language as Social Semiotic". Edward Arnold Publishers, 1978.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>
10. „Доғистонда Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти тақдироти ўтказилди — фото“. *Bugun.uz*. 2021-yil 13-avgustda asl nusxadan [arxivlangan](#).
Qaraldi: 2021-yil 2-aprel.

